

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



PEDAGOGIKA FAKULTETI  
PEDAGOGIKA KAFEDRASI  
**IJTIMOIY ISHNI TASHKIL ETISHDA TADQIQOT  
METODLARIDAN FOYDALANISH**

fanidan

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH BO'YICHA

# USLUBIY KO'RSATMA

2024/2025 o'quv yili, kunduzgi ta'lim shakli uchun.

Kursi: 3-kurs, Semestr: 5-6 semestr.

Bilim sohasi:	900 000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	920 000 – Ijtimoiy ta'minot
Ta'lim yo'nalishilar:	60920100 – Ijtimoiy ish (oila va bolalar bilan)

Namangan – 2024



Ushbu uslubiy ko'rsatma 60920100 – Ijtimoiy ish ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha tuzilgan bo'lib, uslubiy ko'rsatmada talabalarni mustaqil ta'limni bajarishlari to'g'risida zaruriy ma'lumotlar berilgan hamda mustaqil ta'lim olishlarida nazariy jihatdan yordam ko'rsatadi.

*«Ijtimoiy ishni tashkil etishda tadqiqot metodlaridan foydalanish» fanidan talabalarni mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma NamDU pedagogik kafedrasining 2024-yil 27-avgustdagи majlisida muhokama qilingan va Pedagogika fakulteti kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan. Bayonnomा №1*

«Ijtimoiy ishni tashkil etishda tadqiqot metodlaridan foydalanish» fanidan talabalarni mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma NamDU Pedagogika fakultetining 2024-yil 26-avgustdagи majlisida muhokama qilingan va Universitet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan. Bayonnomা № 1

«Ijtimoiy ishni tashkil etishda tadqiqot metodlaridan foydalanish» fanidan talabalarni mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma NamDU o'quv-uslubiy kengashining 2024-yil 18-sentabrdagi majlisida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan. Bayonnomা №1

**Tuzuvchi**

**Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi J.Qoraboyev**

## **ANNOTATSIYA**

Ushbu uslubiy ko'rsatma "Ijtimoiy ishni tashkil etishda tadqiqot metodlaridan foydalanish" fanidan talabalar mustaqil ta'limini bajarish jarayonida talabalarga metodik jihatdan yordam berishga mo'ljallangan o'quv adabiyoti sifatida ishlab chiqildi. Uslubiy ko'satmaning afzallik jihat shundaki, fanning o'quv dasturi (sillabusi)da ko'rsatilgan mustaqil ish topshiriqlari mavzulariga mos bo'lib, talabalar aynan mustaqil ta'limni qay tartibda bajarishi to'g'risida yetarli ma'lumotlar berilgan.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti rektorining 28.06.2024-yildagi "Namangan davlat universiteti talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish tartibi"ga muvofiq ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universitetining 60920100 – Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli talabalari uchun tatbiq etiladi.

## UMUMIY QOIDALAR

**Mustaqil ta'lim** – o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, talabaning muayyan fanga oid xususiy kompetensiyalarni egallash va rivojlantirish, mustaqil fikrlash, masala va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechimini izlash, uni taqdim etish ko‘nikmalarini egallash hamda auditoriyada olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, qo‘sishcha ma’lumot va materiallarni mustaqil o‘rganishga qaratilgan muhim o‘qitish shakli.

60920100 – Ijtimoiy ish ta’lim yo‘nalishi talabalarining o‘quv rejasiga muvofiq Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi fanini o‘zlashtirish auditoriya mashg‘ulotlari (kontakt mashg‘ulotlar) va mustaqil mashg‘ulotlar (mustaqil ta’lim) majmuasi uyg‘unligida amalga oshirilishi qoidasidan kelib chiqqan holda, mustaqil ta’lim auditoriya va mustaqil mashg‘ulotlarning uzviyligi, mantiqiy yaxlitligi hamda bir-birini to‘ldirish tamoyillari asosida tashkil etiladi.

Mustaqil ta’lim yuklamasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasida Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi fanini o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv yuklamaning bir qismi sifatida belgilanadi.

Mustaqil ta’lim auditoriyadan tashqarida bevosita talabaning fan (modul) bo‘yicha mavzularni mustaqil hamda o‘qituvchi rahbarligida o‘qib- o‘rganishi tarzida amalga oshiradigan topshiriqlar majmuuni anglatadi.

Professor-o‘qituvchilarning mustaqil ta’limga oid akademik yuklamasi quydagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) mavzu va topshiriqlarni ishlab chiqish;
- b) mustaqil ta’lim topshiriqlari hamda ularni bajarish va baholash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar, tavsiyalar ishlab chiqish;
- c) topshiriqlarni bajarish yuzasidan tushuntirish va maslahatlar (konsultatsiyalar) berish;
- d) topshiriqlarni tekshirish (taqdimotni tinglash) va baholash;
- e) mustaqil o‘zlashtirish jarayonini tashkil etishga oid boshqa pedagogik faoliyat turlari.

## MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mustaqil ta’limni tashkil etishdan **maqsad** talabalarning Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi fani bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko‘nikma va malakalani rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, fan professor-o‘qituvchilari bilan verbal va noverbal holatda ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Mustaqil ta’limni tashkil etish quydagi **vazifalarni** muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- ✓ talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- ✓ talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovasion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga erishish;
- ✓ talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalar, mustaqil faoliyat yuritish va kreativ fikrlash ko‘nikmalari rivojlanishini ta’minalash;
- ✓ muayyan sohaga oid masala va muammoli vaziyatni chuqur tahlil qilish hamda uni hal etishning maqbul yo‘llarini izlab topishga qodir yetuk mutaxassisni tarbiyalash;
- ✓ ta’lim dasturlaridagi fanga oid ko‘nikmalarga qo‘sishcha ravishda fanlararo ko‘nikmalar (uslubiy, ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalar)ga ega bo‘lish.

Mustaqil ta'limga oid akademik yuklama o'quv yili bo'yicha tuziladigan professor-o'qituvchilar shaxsiy ish rejasining "O'quv-uslubiy ishlar" qismiga kiritiladi.

## **MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR VA TALABALANING VAZIFA VA MAJBURIYATLARI**

Mustaqil ta'limni tashkil etishda **professor-o'qituvchilar** quyidagi **vazifa** va **majburiyatlarni** amalga oshirishlari lozim:

a) mustaqil ta'lim topshiriqlari talabaning aqliy rivojlanishi (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish)ni nazarda tutib, uni fikrlash, izlash, tahlil qilish, adabiyotlar va manbalar bilan ishslash, yechim topish, o'zlashtirish, kompetensiya va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan bo'lishini, jumladan, aniq yechimni nazarda tutuvchi masala, shuningdek, keng tahlil, ta'rif va xulosalarni talab qiluvchi muammolarni chuqur o'zlashtirish va yuqori darajada taqdim qilishni taqozo etuvchi mavzu hamda shu kabi boshqa topshiriqlar berilishini ta'minlash;

b) talabalarning tanqidiy fikrlash, adabiyotlar bilan ishslash, kutubxona va onlayn qidiruv tizimlaridan samarali foydalanish, adabiyotlar ro'yxatini tuzish, adabiyotlardan iqtiboslar va havolalar keltirish, muammolarga yechim topish, vaqtini boshqarish, o'z-o'zini baholash, SMART maqsadlar qo'ya bilish, fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni fan (modul) mazmuniga singdirish;

c) fanning o'quv dasturida dars (auditoriya) mashg'ulotlari (ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya)da mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'zlashtirish, bajarish tartibi, baholash mezonlari va muddati, maslahat olish uchun aloqa (kontakt) soatini aniq ko'rsatib qo'yish;

d) muayyan fan doirasida mustaqil ta'limni amalga oshirishga xizmat qiluvchi uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash va talabaga semestr avvalida taqdim etish, HEMIS tizimi yoki elektron ta'limning boshqa muqobil platformalariga joylashtirish;

e) darsliklar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ulardagи yangi materiallarni, shu jumladan, kasbiy faoliyatga daxldor amaliy muammolarni aniqlash va mustaqil ta'lim topshiriqlariga kiritishga e'tibor qaratish;

f) fan xususiyatidan kelib chiqib, oraliq va yakuniy nazorat savollarining kamida 50 foiz qismi mustaqil o'qib o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzu/topshiriqlar yuzasidan bo'lishini ta'minlash;

g) fan sillabusida hamda HEMIS tizimi yoki elektron ta'limning boshqa muqobil platformalarida belgilangan vaqtida talabalarga mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha uslubiy ko'rtsatmalar, maslahat va amaliy tavsiyalar berib borish;

h) talabalar tomonidan bajarilgan va topshirilgan mustaqil ta'lim mavzu/topshiriqlarini HEMIS tizimi yoki elektron ta'limning boshqa muqobil platformalarida o'z muddatida baholab borish.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda **talabalar** quyidagi **vazifa** va **majburiyatlarni** amalga oshirishi lozim:

a) o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishslash;

b) ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va nazorat turlariga (sinov va imtihonlarga) oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtadan unumli foydalanish;

c) Transport xavfsizligi fani bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etish;

d) mustaqil ta'limni topshirish muddati o'tgach vazifalar qabul qilinmasligi shartini bilish va rioya qilish;

e) mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda plagiarism (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymaslik talabini bilish va rioya qilish;

f) kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish.

## **MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARINING SHAKLI VA HAJMI**

Mustaqil ta’lim topshiriqlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e’tiborga olinishi lozim:

a) ta’lim bosqichi (bakalavriat, magistratura), ta’lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy), o‘quv kursi;

b) muayyan fanning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi murakkablik darajasi;

c) fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;

d) o‘quv rejasiga muvofiq fanga rejalashtirilgan mashg‘ulotlar turlari, ta’lim elementlari xususiyati (seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, kurs ishi (loyihasi), klinik o‘quv amaliyoti va boshq. mavjudligi);

e) akademik guruhlardagi talabalar soni.

Mustaqil ta’lim uchun beriladigan topshiriqlarning shakli, mazmuni, hajmi, murakkablik darajasi “izchillik”, “soddadan murakkabga”, “aniqlilik” tamoyillariga muvofiq bo‘lishi lozim.

**Mustaqil ta’limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**

1) mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (test) tayyorlash;

2) Krasvordlar tayyorlash;

3) badiiy-ijodiy ishni bajarish;

4) kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

5) aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;

6) berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;

7) berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta’rif va xulosalar berish;

8) berilgan mavzuni chuqur o‘rganish va yuqori darajada tahlil qilish;

9) tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;

10) hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash;

11) amaliyotdagи mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;

12) ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;

Fan xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishning boshqa shakllaridan ham foydalanish mumkin.

### **Referat tayyorlash.**

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘srimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma’lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig‘adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo‘yicha imkon darajasida to‘liq, keng ma’lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o‘qituvchidan maslahat va ko‘rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

### **Ko‘rgazmali vositalar tayyorlash.**

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o‘zlashtirish uchun yordam beradigan ko‘rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, harakatlar, maketlar, modellar, grafiklar,

namunalar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir nechta talabaga topshirish ham mumkin.

### **Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.**

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

### **Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.**

Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai- nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

Talaba mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

- tizimli yondoshish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini takomillashtirib borish zarur.

## **9. Mustaqil ta'limni baholash.**

Kredit modul tizimi bo'yicha oraliq nazoratdan yetarli baho ololmagan talaba yakuniy nazoratga kira olmaydi. Shuning uchun talabani baholashda mustaqil ta'lim topshiriqlarin xisobga olishda ikki xil yondashish mumkin:

1. Oraliq nazoratni o'tkazish rejalashtirilganda, birinchi oraliq nazorat savollari dars davomida o'tilgan mashg'ulotlar bo'yicha, ikkinchisi mustaqil ta'lim topshiriqlari asosida savollar beriladi

2. Yakuniy nazorat savollarini tuzayotganda mustaqil ta'limda berilgan topshiriqlardan foydalanish mumkin. Masalan, yakuniy yozma ish variantida 5 ta savol bo'lsa, shundan 3 tasi dars davomida o'tilgan mashg'ulotlar bo'yicha, 2 tasi mustaqil ta'lim topshiriqlari bilan baxolanadi

Mustaqil ta'lim bo'yicha talabalar bilimi amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlarida hamda oraliq va yakuniy nazorat turlarida baholab boriladi. Bunda, fan xususiyati va topshiriq shakli hamda hajmidan kelib chiqqan holda quyidagi tartib belgilanadi:

1) Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlarida mustaqil ta'lim topshiriqlarini baholash natijalari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunday baholashda mustaqil ta'limning:

- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;
- berilgan mavzuni chuqur o'rganish va yuqori darajada tahlil qilish;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalar berish;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish kabi shakllarini qo'llash tavsiya

etiladi.

2) Mustaqil ta'lismi topshiriqlari bevosita oraliq nazorat turi topshiriqlarining bir qismi sifatida baholanadi. Bunday baholashni odatda mustaqil ta'lismi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- hisoblash-chizma ishini bajarish;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash kabi shakllari bo'yicha o'tkazish tavsiya etiladi.

3) Mustaqil ta'lismi topshiriqlari yakuniy nazorat turi topshiriqlarining bir qismi sifatida baholanadi. Bunday baholashda odatda mustaqil ta'lismi:

- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandard masalalarni yechish va ijodiy ishlash kabi shakllarini qo'llash tavsiya etiladi.

Talabalar mustaqil ta'lismi topshiriqlarini **yakuniy nazoratning** bir qismi sifatida baholanadi. Fan yuzasidan yakuniy nazoratni baholashda 60% auditoriya, 40% mustaqil ta'lismi topshiriqlari inobatga olgan holda baholanadi. 100 ballik baholashning 60 balli yakuniy nazoratga 40 balli mustaqil ta'limga ajratiladi. Bunda:

Yakuniy nazoratni baholash (Y60)		Mustaqil ta'lismi baholash(M40)	
Ballik shkala	Baho	Ballik shkala	Baho
60-51	<b>5</b>	40-34	<b>5</b>
50-42	<b>4</b>	33-28	<b>4</b>
41-33	<b>3</b>	27-22	<b>3</b>
32-1	<b>2</b>	21-1	<b>2</b>

Talabalarning yakuniy nazorat bahosini qo'yishda **(Y60)+(M40)/2** yakuniy nazorat bahosi va mustaqil ta'lismi bahosini o'rta arifmetigi olingan holda baholanadi.

Talaba mustaqil ta'lismi topshiriqlarini topshirmasa fanni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

### Mustaqil ta'lismi baholash

Talaba mustaqil ta'lismi mavzusi bo'yicha mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, mavzuning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda mavzu bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil ta'lismi mavzusi bo'yicha mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, mavzuning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda mavzu bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba mustaqil ta'lismi bo'yicha olgan bilimini amalda qo'llay oladi, mavzuning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan mavzu bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba mustaqil ta'lismi mavzularini o'zlashtirmagan, berilgan mavzularning mohiyatini tushunmaydi hamda mavzu bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

<b>Ijtimoiy ish fanidan mustaqil ta'lim mavzulari, topshirish shakli va yuklamasi</b> <b>5-semestr</b>			
<b>№</b>	<b>Mavzu nomi</b>	<b>Topshirish bajarilish shakli</b>	<b>Bajarilish vaqtি</b>
1	Ekspert so'rovning turlari va shakllari	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida referat tayyorlash va uni himoya qilish	1-xafta
2	Sotsiologiyada sotsiometrik metodlar	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish	2-xafta
3	Sotsiologiyada eksperiment muammolari: tahlil tamoyilari	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida infografika tuzish va uni himoya qilish	3-xafta
4	Sotsioinjener faoliyati metodlari	mavzu bo'yicha esse yozish	4-xafta
5	Sotsiologik tadqiqotlarda testlar	mavzu bo'yicha ilmiy maqola, tezislar tayyorlash	5-xafta
6	Etnografik tadkiqotlar	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish	6-xafta
7	Sotsial monitoring	mavzu bo'yicha esse yozish	7-xafta
8	Marketing tadkiqotlar	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida infografika tuzish va uni himoya qilish	8-xafta
9	Zamonaviy soiologik tadqiqot metodlar	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida referat tayyorlash va uni himoya qilish	9-xafta
10	Yu.Sotsial ustanovkalarni qo'llashda ayrim qiyosiy tahlillar	mavzu bo'yicha ilmiy maqola va tezislar tayyorlash	10-xafta
11	P.Empirik tadqiqotlarda sotsiologik proektiv metodikalarni qo'llashning	mavzu bo'yicha esse yozish	11-xafta

12	Amaliy sotsiologik tadqiqotlarning tashkiliy momentlari Variatsion qator grafiklari. Belgilar ahamiyatini nazariy ajratish	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida infografika tuzish va uni himoya qilish	12-xafta
13	Buyurtmachi bilan ishlashning xususiyatlari. Tadqiqot hujjatlari. Ma'lumotlar tahlilida chastotalar	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida referat tayyorlash va uni himoya qilish	13-xafta
14	Sotsiologning kasbiy etikasi. Belgilarning o'rtacha ahamiyati va turlari	mavzu bo'yicha ilmiy maqola va tezislar tayyorlash	14-xafta
15	Tadqiqot tuzilganda sturining xususiyatlari va asosiy bosqichlari	mavzu bo'yicha esse yozish	15-xafta

#### 6-semestr

1	Sotsiologik tadqiqot muammosi va muammoli vaziyati	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida referat tayyorlash va uni himoya qilish	16-xafta
2	Asosiy tushunchalarning mantiqiy tahlili: tushunchalar interpretatsiyasi, strukturali va faktorli operatsionalizatsiya.	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish	17-xafta
3	Tadqiqot gipotezalarining asosiy tamoyillari Korrelyatsion va regression tahlil	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida infografika tuzish va uni himoya qilish	18-xafta
4	Gipoteza turlari. Javoblar kategoriyasi tasvirining asosiy shakllari: javoblar formatining qiyosiy tahlil turlari	mavzu bo'yicha esse yozish	19-xafta
5	Tadqiqiy izlanish strategiyasining xususiyatlari	Mavzu bo'yicha ilmiy maqola, tezislar tayyorlash	20-xafta
6	Umumiy va tanlanma majmualardagi hamohanglik. Tanlov turlari va metodlari.	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish	21-xafta
7	Tanlov muvofikligi hajmini aniqlash va uni ta'minlash.	mavzu bo'yicha esse yozish	22-xafta
8	Sotsiologik ma'lumotlarning asosiy manbalari. Ularining tiplari	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida infografika tuzish va uni himoya qilish	23-xafta
9	Shkalaning umumiy tasnifi. Javoblar kategoriyasi tasvirining asosiy shakllari: javoblar formatining qiyosiy tahlil turlari	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida referat tayyorlash va uni himoya qilish	24-xafta

<b>10</b>	Juftli taqqlashtirish shkalasi Yashirin tasniflarni o'lchash. «Senzitiv» savollar tashkil etish xususiyatlari.	mavzu bo'yicha ilmiy maqola va tezislar tayyorlash	25-xafta
<b>11</b>	Guttman shkalasi	mavzu bo'yicha esse yozish	26-xafta
<b>12</b>	Terstoun shkalasi Bogardius shkalasi Me'yoriy ajratish. Tadqiqot gipotezalarini tekshirish	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida infografika tuzish va uni himoya qilish	27-xafta
<b>13</b>	Laykert shkalasi va uning tadqiqotdagi o'rni Statistik bogliqlik haqida tushuncha	mavzu bo'yicha belgilangan talablar asosida referat tayyorlash va uni himoya qilish	28-xafta
<b>14</b>	"Semantik differentsiatsiya" usuli Belgilarning tebranuvchan ko'rsatkichi	mavzu bo'yicha ilmiy maqola va tezislar tayyorlash	29-xafta
<b>15</b>	So'rovnama tuzishning umumiyligi qoidalari Sotsiologning kasbiy etikasi Hisobot va uning ko'rinishlari	mavzu bo'yicha esse yozish	30-xafta

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1. Asosiy adabiyotlar**

1. "Sanjar Yuldashev. Sotsiologik tadqiqot metodologiyasi / O'quv qo'llanma - T.: Toshkent islom universiteti, 2018. - 228 b
2. Ганиева М.Х. Введение в социальную работу. Методическое пособие. – Ташкент. 2011. – 96 с.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga kuramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 22.02.2019 y. pf-5667 Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. "Xalq so'zi", 2019 yil 23 fevral
4. Методики исследования языка в социальной работе: практикум / сост. О. Н. Кошевой. - Владивосток: Изд-во ВГЭУС, 2005. - 56 с.
5. Ubaydullaeva R.A. (va boshqalar) Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti. O'quv qo'llanma T.: Ijtimoiy fikr markazi. 2001. 124 b.

### **Axborot manbalari**

1. [www.ziynet.net](http://www.ziynet.net)
2. [www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru)
3. [www.religions.uz](http://www.religions.uz)

4. <https://www.socialwork.com>
5. <https://www.socialworker.com>
6. <https://www.socialwork.org>

(I-ilova)

### **MAQOLANING NOMI**

**(14 O'LCHAMDA QALIN, KATTA HARFLI FORMATDA O'RTADA JOYLASHISHI  
LOZIM: ILTIMOS, BU SHAKLNI O'ZGARTIRMANG)**

**Muallifning ismi, sharifi, familiyasi**

Ish joyi yoki o'qish joyi

**Elektron pochta manzili**

### **ANNOTATSIYA**

Annotatsiya berilgan shakl va ko'rninishda bo'lishi lozim. Iltimos, bu shaklni o'zgartirmang. Annotatsiya 150-200 bosma belgi hamda 5-10 kalit so'zlardan iborat bo'lishi lozim. Annotatsiya (ingliz tilida ABSTRACT) va kalit so'zlar (keywords) xalqaro tizimlarda indekslanishi uchun ingliz tilida ham berilishi zarur.

**Kalit so'zlar:** bu yerga 5-10 so'zdan iborat maqoladagi asosiy urg'u olgan atamalarni yozish maqsadga muvofiq.

### **KIRISH (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**

Bu bo'limda maqolaning kirish qismi yoziladi. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Kirish qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**

Bu bo'limda ishning adabiyotlar tahlili va metodologiyasi yoritiladi. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Adabiyotlar tahlili va metodologiya qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

### **NATIJALAR**

Bu bo'limda maqolaga oid bo'lgan natijalar (jadvallar, grafiklar, diagrammalar v.h.) berilishi mumkin. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Natijalar qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi. Jadvallar uchun 10 o'lchamni ishlatish masadga muvofiq. Jadval, grafik va boshqa shunday shakllar berilgan satrning o'rtasida 1-jadval/1-diagramma va hokazo kabi nomlanishi lozim.

**MUHOKAMA (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**  
Ushbu bo'limda natija va muammolar muhokamasi bayon etiladi. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Muhokama qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

**XULOSA (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**

Bu bo'limda maqolaning tugallangan xulosasi keltiriladi. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Xulosa qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES) (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**

Adabiyotlar ro'yxati uchun 14 o'lcham, Times New Roman bosma shakl, alohida xatboshiga ajratilgan holat ishlataladi. Mualliflar adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishda "Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasining nashr qilish qo'llanmasi" (The Publication Manual of the American Psychological Association)ga alifbo tartibiga amal qilishlari lozim. Adabiyotlar ro'yxatida bir maqola uchun bir muallifning 30% dan ortiq ilmiy ishlaridan iqtibos keltirilmasligi tavsiya etiladi. Maqola xalqaro bazalarda indekslanishi uchun o'zbek tilida berilgan adabiyotlar ro'yxati ingliz tilida (REFERENCES) alohida xatboshida keltirilishi zarur. Iqtibos keltirilgan adabiyotning tartib raqami maqola matnida keltirilgan [raqam] bosma belgisidagi tartib raqamga mos kelishi lozim. Quyida turli adabiyotlar uchun namunalar keltiriladi:

**Kitoblar**

Jamolov, J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. O'qituvchi.

**Jurnallar**

Kholikova, N. (2020). Poetic Features of Uzbek Poetry of the National Awakening Period. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04(84), 615-623.

**Vebsayt**

Barduhn, S. (2014). *Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom*. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awareness-monolingual-classroom-0>

**Ikki va undan ortiq mualliflar**

Mardonov, S., Khodjamkulov, U., & Botirova, S. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247.

(2-*ilova*)

## TAQDIMOTGA QO'YILADIGAN TALABLAR:

Slaydlarni texnik namoyish etish quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

- slaydlar miqdori (12-15).
- slaydlarning mazmunli ko`rsatkichlari: birinchi slayd: mavzu nomi, muallif familiyasi, o`quv guruhi raqami, yaratilgan kunidan iborat;
- oxirgi slayd axborot manbasiga bag`ishlangan (adabiyotlar ro`yxati);
- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
- slaydlar o `z-o `zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi;
- slaydda joylashtirilgan matnlar juda uzoq bo`lmasligi kerak;
- rasmlar aniq va yetarlicha kattaroq bo`lishi zarur. Rasmlar o`lchamini katta qilishga urinmang, faqatgina siz sifatni yo `qotasiz;
- jadvallarda ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko`rsatilishi, jadvallarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvallarni haddan ziyod ko` ma'lumotlar bilan to`ldirish kerak emas;
- talaba tayyor bo`lgan taqdimotini 5-7 daqiqa davomida himoya qiladi va mustaqil ta'lim bo'yicha savollarga javob beradi

(3-*ilova*)

## REFERAT YOZISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

### 1. Mavzuni tanlash va tadqiq qilish:

- Mavzuni tanlang va uning dolzarbligini aniqlang.
- Mavzuga oid mavjud adabiyot va manbalarni toping va o`rganing.

### 2. Tadqiqot rejasini tuzish:

- Referatning asosiy qismlarini belgilab oling: kirish, asosiy qism (nazariy va amaliy qismlar), xulosa.
- Har bir qismda qaysi masalalarni qamrab olishingizni aniqlang.

### 3. Kirish:

- Mavzuning qisqacha ta'rifi va dolzarbliji.
- Referat maqsadi va vazifalarini.
- Mavzuga oid asosiy savollarni qo'yish.

### 4. Asosiy qism:

- **Nazariy qism:** Mavzuga oid nazariyalar, tushunchalar va ularning tavsifi.
- **Amaliy qism:** Nazariyalarni amaliy misollar orqali tushuntirish, statistik ma'lumotlar va tajribalar.
- Har bir bo`limni alohida bo`limlarga ajrating va kerakli diagramma, jadval, grafik va boshqa materiallarni qo'shing.

### 5. Xulosa:

- Mavzuni umumlashtirish va asosiy natijalarini taqdim etish.
- Tadqiqotda erishilgan xulosalar va tavsiyalar.
- Mavzuga oid keljakdagi tadqiqot yo`nalishlari.

## **6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- Referat davomida foydalanilgan barcha manbalarni aniq va to‘g‘ri ko‘rsating.

### **Izoh:**

- mustaqil ta’lim hajmi A4 formatda, 14 o‘lchamli shriftda, Times New Roman shriftda, 1,5 interval oraliqda, yuqori va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm va o‘ngda 1,5 sm oraliq masofa tashlangan holda tayyorlanadi;
- mustaqil ta’lim 18-20 bet hajmdan kam bo‘lmasligi maqsadga muvofiq;
- mustaqil ta’limning belgilangan talablardan va foydalanilgan adabiyotlar bo‘lishi lozim;
- talaba tayyor bo’lgan referatini 5-7 daqiqa davomida himoya qiladi va mustaqil ta’lim bo‘yicha savollarga javob beradi
- mustaqil ta’limni bajarilish jarayonida tushunmovchilik yuzaga kelgan taqdirda fan o‘qituvchisi bilan bog‘lanish tavsiya qilinadi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**Pedagogika kafedrasи 60920100 –Ijtimoiy ish ta'lism yo'nalishi III-bosqich IJI-AU-22 guruh talabasi Abdujabborov Akmaljon Azamjon o'g'lining umumiy Gumanitar krizislar sharoitida ijtimoiy ish fanidan bajargan**

# **REFERATI**

**Mavzu:** O'zbekiston Respublikasida jismoniy va ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy ximoyasi.

**Bajardi**

**A.Abdujabborov**

**Qabul qildi**

**A.Qoraboyev**

**Namangan 2024**